

TALABALARNI ILG'OR AN'ANA, ODAT VA MAROSIMLAR RUHIDA TARBIYALASH

Ibragimov Shaxzod,
JDPI musiqa madaniyati
Fakulteti 205- gurux talabasi
X.Tursunpulatova,
ilmiy rahbar o'qituvchi

Annotatsiya: Maqolada jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keluvchi illatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: bamani, sahiy, jasur, to'g'riso'z insonlar, yolg'on gapirish, aldash, vafosizlik

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida o'tishi bilan, tamomila yangilanish jarayonlari boshlanib, ijtimoiy xayotning barcha sohalarida islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. Biz bu jarayonni quyidagicha ijobiy portlash effekti deb nomlasak, bu jarayonni o'quvchilrimizda uchta xususiyatning yuzaga kelishi uchun sabab bo'la oladi, deyishimiz mumkin. Bunda quyidagilarga etibor qaratiladi;

- yoshlarimiz o'z oilalariga, vataniga sadoqatli, vafador kishilar bo'lib shakllanishi;
- bilimli, ma'rifatli bo'lib davlat siyosatini tushunib anglash, zero kuch hamda bilim tafakkurda;
- o'z kasb-xunarga ega bo'lgan shaxslar bo'lib yetishishi, jamiyatimizda sodir bo'layotgan bu jarayonlar ta'lim maskanlari oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Shulardan g'oyat muhim ijtimoiy- seyosiy ahamiyatga ega bo'lgani, bu o'quvchilarimizni mustaqillik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir. Mustaqillik eng aziz ne'mat, oliy qadriyat bo'lib, uni mustahkamlash bugungi asosiy vazifamizdir. Ildizlari ming yillardan oziq oluvchi an'analarimiz, qadriyatlarimizni ulug'lash, asrab-avaylash, rivojlantirish bu vazifani ado etish muhim o'rin tutadi.

Qadim ajdodlarimizdan bizga ulug' meros bo'lib kelayotgan navro'z bizlarga yangilanish, poklik, uyg'onish xis-tuyg'ularini baxsh etadi, navro'z bayramida xalqimizni ko'pgina rasm-rusumlarini namoyish etadigan badiiy dasturlar tayyorlanadi. Jumladan, kelin salom, beshik to'yi va x.k. Bu marosimlar oila, qadriyatlar beshigi bo'lgan an'analarimizni yana bir karra eslatib, o'quvchi yoshlarimizda ezgu orzu-havaslar, onalik baxtiga etish niyatlarini shakllantiradi. Bugungi kunda bu odatlar jamiyatimiz yoshlarini turli xil salbiy tushunchalardan, yaxshilikka chorlaydi. Xotira va qadrlash kunini xam munosib nishonlashda institutda olib borilayotgan har bir ishdan ko'zlangan maqsad talabalar ongini milliy istiqlol g'oyasini singdirishdir, Vatanga muhabbat, mustaqilikning qadriga yetish kabi tuyg'ularini shakllantirishdan iborat. Guruhlardagi o'quv xonalariga respublikamiz balki, dunyo ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan atoqli olimlarmiz hayoti va faoliyatini targ'ib qiluvchi ko'rgazmali qurollar qo'yilishi talabalarimizning ular bilan muttasil tanishib borishlari, ulardek ilm-fan cho'qqilarini egallashga intilishlariga turtki berishi tayin. Bu o'lkada nihoyatda yuqori darajali manaviyat sohibi bo'lgan bamani, sahiy, jasur, to'g'riso'z insonlar yashashgan va yashamoqda. Yolg'on gapirish, aldash, vafosizlik kabi illatlar jinoyat deb sanalgan va sanaladi. Ana shu ming yillar osha bizgacha yetib kelgan qadriyatlar hozirgi kunda xam o'zining axloqiy mohiyatini yo'qotmagan.

Bugungi kunda istiqlolimiz sharofati bilan bu qadriyatlarimiz tiklandi. Talabalarimizni ushbu an'analar ruhida tarbiyalash maqsadida ularning o'qishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda. Maqsadimiz o'quvchilar ongi va qalbiga mustaqillik va vatanparvarlik ruhini singdirib, ularga vatanimizning shon-shuxratini himoya qilish va yuraklarida Mening davlatim, Mening xalqim, Mening vatanim tushunchalarini saqlanishiga o'z xissamizni qo'shishdan iboratdir.